

This is not registered version of TotalDocConverter.
Yaqin hozir boshqaruvchi qo'lasiga bag'ishlayman.

Atrof jimjit. Hovlidagi daraxtlar kuzgi shabadada asta chayqaladi. Chorpoyni tutash olma daraxtidan g'arq pishgan olma yerga "tap" etib tushadi.

Chorpoyni chekkasida omonatgina o'tirgan xola bu ovozdand cho'chidi, so'ng o'rnidan chaqqon turib, yerdan olmani oldi. Sap-sariq olma choshgoh quyoshi nurlarida tovlandi.

- Ha-a, dunyo deganlari shu ekan-da, - O'zicha so'zlandi xola.

U bu bilan pishib yerga tushgan, shu bilan o'z umriga nuqta qo'ygan olma haqidami yo umuman, hayot haqida gapiryaptimi, uni kuzatgan odam buni dabdurdustdan angolmasdi.

Bir payt chorpoyni ro'parasidagi uy eshigi ochildi. Ostonada yigirma yoshlardagi qiz ko'rindi.

- Rixsi xola, kirarkansiz, buvim so'rayaptiB-lar, - dedi qiz horg'in.

Xola eshik oldiga bordi. Shu yerda bir oz turib qoldi-da, so'ng shahd bilan ostonadan hatladi. Uy ichkarisiga kirdi.

Xonadagi sukutni tashqaridan kirib qolgan pashshaning g'ing'illagan ovozi buzardi. Uy to'riga qo'yilgan katta sim karavotda, agar choyshabdan chiqib turgan qoqsuyak qo'llar bo'lmasa, birov yotganligi ham sezilmasdi. Xola asta karavotga yaqinlashdi.

- Oysha, tuzuk bo'lib qoldingizmi?

Shunda bemor "yalt" etib keluvchiga qaradi. Uning chehrasidan dard azobi sezilmas, ich-ichiga cho'kkan moviy ko'zlari, bir burda bo'lib qolgan oqarinB-qiragan yuzlari osoyishta ko'rinaridi.

Bemor boshini asta irg'adi. Nimadir demoqchi kabi qo'shnisiga yuzlandi.

- Rixsi...

Xolaning xotirasida olis yillar voqeasi jonlandi...

- Mening ismim Ayshe, - dedi qiz tabassum bilan.

Qiz baland bo'lyli, yelkasida sarg'ish sochlari mavjlanib turganga o'xshar, moviy ko'zlari charaqlab, kishini o'ziga tortib turardi.

"Turobning xotini ko'hlikina ekan", degan fikr o'tgandi uning xayolidan ilk bora Oysha bilan tanishganida.

Ha, o'shanda "Turob ota-ona roziligisiz qrim-tatar qizga uylanibdi, kelin o'rtog'inikida emish", degan gap tarqaldi. Esida, o'shanda mahallada ozmuncha shov-shuv bo'lmagandimi, e-he...

Axiri kelin ham keldi. Kelinni ko'rmasdan, bilmasdan mahobat qilganlar axiri tinchidilar. U ham o'zlari qatori bir inson ekan.

Yo'q, kelin bu hayotga tez ko'nikdi, eplikkina, pishiq-puxtagina chiqdi.

- Keldingizmi...

Xolaning beixtiyor xo'rliqi keldi.

Eshikda qorasi ko'rinishi bilan uni Oysha shu so'zlar bilan qarshi olardi.

Eh-he, shu so'zlarga u qanchalik o'rganib qolgandi. Hayotda nimalar o'tmaydi. Yuragi siqilsa, g'am-tashvishlardan ezilsa, shu qo'shnisi bilan dardlashardi... Ha, yana ro'parada bog' qo'shnisi Rohila bo'lardi. Uchalasi birinchi bor qahva ichgandilar. Ichlari yayrab, miyalari tiniqlashganday bo'lgandi o'shanda. Shu-shu, ular Oysha yanchib, qaynatgan qahvaga ham sherik bo'ldilar.

Qahvaga ham shu Oysha o'rgatgandi ularni. Rohila ham rahmatli bo'lib ketdi. Keksalik ekan-da, burnog'i yili shundaygina zinadan yiqilib tushdi-yu, o'ldi-ketdi. Parvardigori olam, kim nima sabab bilan bu dunyodan ketadi - O'zi biladi.

Keyin ularning davralariga qo'shni qishloqdan mahallalariga ko'chib kelgan Mamlakat ham qo'shildi. Juda shaddod edi-da,

tushmagur. To'y, aza, boringki, biron ma'raka uningsiz o'tmasdi. Barini tinchitardi, Xudo yarlaqagur. Rohila o'g'lini uylantirayotganida to'yda erkakcha kiyim kiyib olib o'ynagandi. Rosa to'yni qizitgandi o'ziyam. O'shanda to'ylar qiziq bo'lardi-da.

Hozirgilarnikiga sira o'xshamasdi.

Qahraton qish, sovuqdan tishlar bir-biriga tegib, takillaydi. Axir qishloqda to'ylar qishda bo'lardi-da. Sababimi? Sababi - qishloq ahli dehqon, yozning har lahzasi g'animat. Hosilni yig'ib-terib, keyin qishda oyoqni uzatib, bemalol to'y qiladi-da.

O'rtada gurillab gulxan yonib turadi. Do'mbira, childirma, karnay-surnay sadolari avjiga chiqadi. Oldidagi olov cho'g'lari so'nayozgan do'mbirachi zo'r berib do'mbirasini chaladi, surnaychi qip-qizil lunjlarini shishirganicha, surnay chaladi. Odamlar sovuq qotganlaridan ham davradan chiqmay o'ynayverardilar, o'ynayverardilar... Ha, o'sha to'ylarga yetadiganini ko'rmadi. Risolat ham ketdi Uch-to'rt yil bo'ldi. Xolaning ko'ngli o'ksidi. Ha, ular ketdi. U negadir o'zini yolg'iz sezdi. Ko'ziga yosh keldi. Mana, Oysha ham...

- Rixsi...

Xola o'ziga keldi. "Yalt" etib, bemorga qaradi. Bemorning ko'zlari olazarak bo'ldi.

- Yaxshi-yomon gaplar o'tgan bo'lsa...

- Ie, Oysha, sira unday demang, hali yaxshi bo'lib ketasiz, ha...

Xolaning yuragi orqaga tortdi, shosha-pisha shunday dedi. Bemor indamadi. Oraga sukut tushdi.

- Rixsi xola, buvim toliqdilar... - qiz uning yoniga sekin keldi-da, shivirladi: - Endi dam olsinlar...

Rixsi xola tizzalariga suyanib, o'rnidan turdi. U dugonasidan ko'z uzolmay, arang eshikka yo'naldi. Jim-jit hovlini tark etdi.

...Tashqari shovqin edi. Bolalar o'yindan zerikmay, uyoqdan-buyoqdan chopishadi, kimdir chekkada mashina tuzatadi, kimdir devorga mingashib olgan paxsa uradi.

- Bo'l, loyni uzat! - deb baqiradi hamrohiga.

Oldi qish, kun g'animat. Ko'cha boshida, ariq chekkasida qo'shni kelinlar tizilishgan. Ular turib olganlaricha bir-birlariga gap bermay nimalarnidir muhokama qiladilar, bahslashadilar.

Xolaning ko'ngli birdan yorishdi, boyagi mahzunligi picha tarqadi. U, Rohila, Mamlakat, Oysha... ular ham shunday edilar. Shunday yosh, shunday shaddod...